

O'QITUVCHILARNING TA'LIM JARAYONIDA KASBIY REFLIKSIYANING O'RNI

Xaydarov Oybek Asatullayevich

Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda ta'lim jarayonida kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishi, reflektorlik xususiyatini namoyon etishi va bu jarayon o'quvchilar ongiga ta'siri hamda ta'lim tizimini shu yo'sinda olib borib tubdan takomillashishini aytib o'taman.*

Kalit so'zlar: *Pedagogik, o'qituvchining kasbiy refleksiya, kasbiy refleksiya, refleksiya, reflektiv ta'lim, reflektiv pedagog.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilar nafaqat bilimlarni yetkazuvchi sifatida, balki o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga yo'naltiruvchi tarbiyachi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Kasbiy refleksiya - o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi.

Ushbu jarayon o'qituvchiga o'z ish uslublarining samaradorligini baholash, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Refleksiya o'qituvchining kasbiy rivojlanishida asosiy vosita sifatida tan olinib, o'quvchilarning kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [1].

Mavzuning dolzarbliligi

Bugungi kunda ta'lim tizimida kechayotgan modernizatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalar ta'siri, pedagogik innovatsiyalar, o'quv jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar o'qituvchidan yangicha professional yondashuvni talab qiladi.

Ushbu yangicha yondashuvning markazida kasbiy refleksiya tushunchasi turadi. Zamonaviy ta'lim modeli o'qituvchini faqat bilim beruvchi emas, balki o'z faoliyatini tahlil qiluvchi, baholovchi, takomillashtiruvchi, o'quv jarayonining sifat kafolatini ta'minlovchi subyekt sifatida ko'radi [2].

Asosiy qism

Ta'lim jarayonida o'qituvchining muvaffaqiyati nafaqat bilim va metodik ko'nikmalarga, balki o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish va o'z ustida ishlash qobiliyatiga ham bog'liq. Bunday qobiliyat kasbiy refleksiya deb ataladi. Uni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri — mentorlik va kuzatish (observatsiya) faoliyatidir. Kasbiy refleksiya — bu o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, o'zini baholash va uni takomillashtirishga qaratilgan ongli jarayonidir. Reflektiv o'qituvchi darsni befarq o'tkazmaydi, balki uning har bir bosqichini o'rganadi, natijalarni tahlil qiladi va kelgusi faoliyatini rejalashtiradi.

Kasbiy ravishda takomillashish imkonini beradigan jarayondir. Bu jarayon faqat muammolarni "tuzatish" vositasi refleksiya — o'qituvchiga o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqish, kuchli va zaif jihatlarini aniqlash hamda doimiy emas, balki pedagogik samaradorlikni oshirishning uzluksiz usuli hisoblanadi[1]

Kasbiy refleksiyaning yana bir muhim qismi — fikr-mulohaza olish bo'lib, u o'qituvchining pedagogik faoliyati haqida yaxlit qarash shakllantiradi. Agar fikr-mulohaza ishonchli hamkasb tomonidan berilsa, u qimmatli yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Agar talabalar tomonidan berilib, unga amal qilinsa, bu ularning fikr va tajribalarining jiddiy qabul qilinishini ko'rsatadi va ishonchli muhit yaratadi[2].

Refleksiya (lotincha "reflexio" - orqaga qaytish) - har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlarni anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir [3]. Inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin xislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir.

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o'zi fikr yuritishi jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart) [2]. Suqrot, Platon, J.Lokk va boshqa yunon faylasuflari refleksiyaning insonning o'z- o'zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta'kidlashadi [5]. Kant, Gegel, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiya insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar [7]. Leybnits konsepsiyasiga muvofiq refleksiya insonning appersepsiyaga (idrokning inson o'tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog'liqligi) qodirlik xususiyati sifatida tilga olinadi [4].

Bugungi zamonaviy falsafada esa refleksiya nazariy va amaliy jihatdan farqlanadi. Birinchisi, inson tomonidan tushunchalarning rivojlanish jarayoni, yagona tushuncha doirasida bir ta'rifdan boshqasiga o'tish imkoniyatini beradigan metod sifatida, ikkinchisi esa, individual harakat yoki fikrni tushuncha bilan nisbatlanish jarayoni. Bunda isbotlash o'lchovi ustidan nazorat ta'minlanishi kerak.

Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o'rganilayotgan refleksiya psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, andrologiya, kibernetika va boshqa ko'plab murakkab fanlarning tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etilib tadqiq qilinmoqda. Biz "refleksiya" kategoriyasiga pedagogika va psixologiya nuqtayi nazaridan ta'rif beramiz va uning mohiyatini o'rganishda o'qituvchilar kasbiy faoliyatidagi o'rnini tahlil qilishga batafsil to'xtalamiz.

Psixologiyada refleksiya "subyekt tomonidan o'zining ichki psixik jarayoni va holatlarini bilish, nazorat qilish" mazmunida talqin qilinadi [6]. O'qituvchining pedagogik faoliyatida, refleksiyaning shaxsga nisbatan ahamiyatini o'rganishda bu tushunchaning ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan ta'rifi mukammal ekanligi e'tirof etiladi, unda refleksiya insonning borliqda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi sifatida qaraladi [8].

Shaxsning psixik rivojlanishini boshqarish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, S.L.Rubinshteyn insonning mavjudligini va uning ijtimoiy borliqqa nisbatan munosabatlarini refleksiya bilan bog'laydi: "Refleksiya - bu insonning uzluksiz hayot jarayonini go'yo bir daqiqaga to'xtatib, uzib qo'yadi va insonni xayolan olib chiqib ketadi, shu vaziyatda insonning har bir harakati hayot haqidagi falsafiy fikr-mulohazalari muayyan bir fe'l-atvor kasb etadi" [9].

Insonning ijodiy muammolarini hal etishda ro'y beradigan fikrlashdagi refleksiyani o'rganib, olimlar uni fikrlovchi subyektning o'z - o'zini boshqarish usuli (Yu.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (IN.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko'rsatkichi (A.Z. Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta'rif berib baholaydilar [12].

I.S.Ladenko refleksiyani intellektual tizimlarning o'z-o'zini tashkil qilishdagi ahamiyatini intellektual faoliyatning malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish ehtiyoji hamda nutq, xotira, tasavvurlarning idrok va tashqi shakllari haqida psixologik qarashlarni ishlab chiqish zaruriyati bilan bog'laydi.

U "Refleksiya - ichki tasavvurdan tashqi tasavvurga va aksincha biridan boshqasiga o'tish, fikrlash jarayonida ushbu jarayonlarning interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi haqidagi fikrlarni shakllantirish asosi.

Refleksiya asosida nafaqat psixologik bilimlar, balki xotira, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi va amalda qo'llash usullari takomillashtiriladi" deb hisoblaydi [10].

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy- tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning IN.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi [11]:

1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

2. Shaxsiy refleksiya: O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.

3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.

4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida refleksiya jarayonini o'rganib ko'plab olimlar uning kommunikativ hamda kooperativ turlarini ustun qo'yadilar, aynan ushbu usullar o'qituvchining pedagogik faoliyatida va o'quvchilar bilan muloqotida ko'proq namoyon bo'ladi.

Biroq, bizningcha, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari xilma-xil bo'lganligi sababli refleksiyaning har bir turini alohida o'rganib tahlil qilish mumkin emas, zero ular ma'no jihatidan bir - birlari bilan o'zaro bog'liq. Kasbiy refleksiya — zamonaviy pedagogning ajralmas sifati.

Uni rivojlantirishda mentorlik va kuzatish faoliyati muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonlar bo'lajak o'qituvchiga o'zini tahlil qilish, o'rganish va takomillashtirish imkonini beradi.

Natijada, reflektiv fikrlovchi, innovatsion yondashuvga ega, professional o'qituvchi shakllanadi.

Kuzatish amaliyoti o'qituvchilik tajribasining eng muhim komponentlaridan biridir. U tahliliy fikrlash, kuzatuvchanlik va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bo'lajak o'qituvchilar kuzatuv davomida:

- o'qituvchining pedagogik usullarini tahlil qiladi;
- o'qituvchilarning javoblari, e'tibor va motivatsiyasini kuzatadi;
- o'z darslarini baholash uchun mezonlar ishlab chiqadi.

Masalan, darsni videoga yozib olish va uni mentor bilan birgalikda tahlil qilish reflektiv tahlilning samarali shakli hisoblanadi. Shu orqali talaba o'zining nutqi, mimikasi, vaqtni boshqarish usullari va o'qituvchilar bilan muloqot sifatini baholay oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turli xildagi o'qitish faoliyatlaridan foydalanish o'qituvchilik kasbiy refleksiya oshirish amaliyotini yaxshilash uchun foydali elementlardir.

Bu o'qituv jarayonlaridagi strategiyalar, darslarini, audiolar, video yozuvlar va o'z-o'zini nazorat qilish usullarini hamda tanqidiy tahlil qila oladigan, o'z faoliyati haqida bilishini oshiradigan hamda yangi ta'lim jarayoniga ilk qadam qo'yayotgan o'qituvchilar uchun muhim boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan ta'lim jarayonidagi kasbiy refleksiya shakllantirishning qadam-baqadam ketma-ketlik algoritmini bajarish orqali aksariyat ko'p o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatida kasbiy refleksiya rivojlantira oladi va shu bilan bir qatorda ta'lim sifati hamda bilim berib ko'nikmalari tubdan takomillashga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonova, M. (2021). "Pedagogik refleksiya: nazariya va amaliyot". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Qodirov, A. (2020). "O'qituvchining kasbiy rivojlanishi va pedagogik refleksiya". Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
3. Mirzayeva, D. (2022). "Pedagogik refleksiya va innovatsion ta'lim texnologiyalari". Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
4. Tashpulatov, I. (2023). "O'qituvchilar uchun pedagogik refleksiya va uning ahamiyati". Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti.
5. Rahimov, S. (2021). "Pedagogik refleksiya: ta'lim jarayonida o'z-o'zini baholash". Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.

6. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: fan, 2004. 130 B.
7. Muslimov n.A., Mullaxmetov r.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. - Toshkent: oo'mtv, 2007. 173 B.
8. Nishonaliev U.N., Shodiev N.Sh., Muslimov N.A. Mehnat ta'limidan "kasbga yo'naltirish asoslari" kursi bo'yicha metodik qo'llanma. - Toshkent, 2004.
9. Асранбаева, М. Основные направления и факторы подготовки детей к социальной жизни в неполных семьях. Ученый XXI века учредители: общество ограниченной ответственностью коллоквиум, 43-45.
10. Xalimjanovna, A. M. (2022). Manifestations of stress in professional activity and ways to eliminate it. Galaxy international interdisciplinary research journal, 10(11), 841-844.